

**MILLIY GVARDIYA HUZURIDAGI QORABAYIR OTLARI MAHORAT
MAKTABI FAOLIYATINING QORABAYIR ZOTLI OTLARNI
RIVOJLANTIRISH VA MILLIY OT SPORTINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI
O'RNI**

Ergashova Hilola Yusuf qizi
Angor tuman Imom At-Termiziy 41

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.07.2026

Revised: 11.07.2026

Accepted: 12.07.2026

KALIT SO'ZLAR:

Qorabayir oti, Milliy gvardiya, mahorat maktabi, yilqichilik, seleksiya, naslchilik, veterinariya, ot sporti, Tent Pegging, konkur, polo, chavandoz, genofond, sport infratuzilmasi.

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yilqichilik tarmog'ini rivojlantirish, Qorabayir zotli otlarning genetik salohiyatini saqlash va takomillashtirish hamda milliy ot sporti tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqishda Milliy gvardiya huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabining o'rni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgan. Maktabning tashkil etilishining huquqiy asoslari, faoliyat yo'nalishlari, seleksiya va naslchilik ishlari, veterinariya xizmatini takomillashtirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, yosh chavandozlarni tayyorlash hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, yoshlar festivallari, vatanparvarlik ruhidagi loyihalar hamda viloyat rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan infratuzilmaviy islohotlarning milliy ot sportini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan..



**“Qorabayir zotli otlar yoshlarimiz uchun g'urur
timsoliga aylanishi lozim”**

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tarixiy merosni tiklash va milliy sport turlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Qorabayir zotli otlarni ko'paytirish, ularning nasl sifatini yaxshilash, xalqaro talablarga javob beradigan sport otlarini tayyorlash hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ushbu sohada mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Davlat rahbari otxonalarni oddiy saqlash joyi emas, balki naslli otlarni yetishtirish, sport, ilm-fan va turizmni birlashtiruvchi zamonaviy majmualar sifatida rivojlantirish zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda.

Shu maqsadda respublikaning barcha hududlarida zamonaviy yilqichilik xo'jaliklari tashkil etilib, veterinariya bloklari, yopiq va ochiq manejar, trening maydonlari hamda seleksiya markazlari barpo etilmoqda. Bunday islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi **PQ-5213-son qarori** asosida Milliy gvardiya huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabi tashkil etildi.



Mazkur muassasa bugungi kunda nafaqat sport maktabi, balki Qorabayir zotining genofondini saqlash, ilmiy asosda rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy ot sportini ommalashtirish bo'yicha respublikaning yetakchi markazlaridan biriga aylandi.

Prezident qaroriga muvofiq maktab oldiga quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan Qorabayir zotli otlardan foydalanishni keng ommalashtirish, milliy ot sporti musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish, yosh avlod chavandozlarini tayyorlash, seleksiya va naslchilik

ishlarini takomillashtirish, veterinariya xizmatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, Qorabayir zotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, yoshlarni sport seksiyalari va klublarga keng jalb etish, milliy sportning xalqaro nufuzini yuksaltirish.

Mazkur vazifalar nafaqat sport rivojiga, balki yilqichilik iqtisodiyoti, eksport salohiyati va turizm rivojiga ham bevosita xizmat qilmoqda.

Mahorat maktabida ta'lim jarayoni zamonaviy metodikalar asosida tashkil etilgan.

Hozirgi kunda 524 nafar o'quvchi tahsil olmoqda, 30 nafarga yaqin malakali mutaxassis faoliyat yuritmoqda, har yili 36 bosh Qorabayir zotli ot sport va naslchilik yo'nalishida tayyorlanmoqda.

Mashg'ulotlarda Tent Pegging, konkur, polo, milliy chavandozlik elementlari, otlarni boshqarish texnikasi, sport etikasi, veterinariya asoslari, ot psixologiyasi, xavfsizlik qoidalari o'qitiladi.

Natijada yosh sportchilar nafaqat professional chavandoz, balki otni to'g'ri parvarish qiluvchi mutaxassis sifatida shakllanmoqda.

Qorabayir oti Markaziy Osiyoning eng qadimiy va noyob zotlaridan biri hisoblanadi.

Mahorat maktabida nasldor ayg'ir va biyalarni tanlash, genetik ko'rsatkichlarni tahlil qilish, nasl kitoblarini yuritish, sun'iy va tabiiy juftlashtirish usullaridan foydalanish, sport sifatlarini baholash, zot tozaligini saqlash bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib boriladi. Bu esa kelajakda xalqaro standartlarga javob beradigan sport otlarini yetishtirish imkonini yaratmoqda.

Ot sportida muvaffaqiyat ko'p jihatdan veterinariya xizmatining sifatiga bog'liq.

Mahorat maktabida muntazam klinik tekshiruvlar emlash ishlari, laborator diagnostika, ratsional oziqlantirish, zoogigiyena talablariga rioya qilish, reabilitatsiya mashg'ulotlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Natijada otlarning xizmat muddati uzaymoqda, sport natijalari esa sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

2026-yil 27-aprel kuni Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Milliy gvardiya huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabiga tashrif buyurib, muassasada yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Tashrif davomida, yangi zamonaviy otxonalar loyihasi, trening maydonlari, veterinariya bloklari, chavandozlar uchun xizmat binolari, sport infratuzilmasini kengaytirish loyihalari taqdim etildi. Viloyat rahbari mazkur tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab, ot sporti infratuzilmasini yanada rivojlantirish yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi. Mazkur loyihalar kelgusida xalqaro musobaqalarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishi kutilmoqda. Mahorat maktabi faqat sport markazi emas, balki yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi muhim ma'naviy maskan ham hisoblanadi.

Bunga misol sifatida "Yangi O'zbekiston" massivida viloyat hokimligi, Milliy gvardiya Chavandozlar maktabi, Qorabayir otlari mahorat maktabi hamda Termiz davlat pedagogika universiteti hamkorligida o'tkazilgan **"Yangi O'zbekiston yoshlari**

birlashaylik" festivali keltirilishi mumkin. Festival davomida Amir Temur tavalludining 690 yilligi keng nishonlandi; milliy ot sporti ko'rgazmalari tashkil etildi, yoshlar uchun otlarda sayr uyushtirildi, milliy liboslardagi chavandozlar sahna ko'rinishlari namoyish etildi, yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ma'naviy tadbirlar o'tkazildi. Bunday tadbirlar milliy sportni ommalashtirish bilan bir qatorda yoshlarning tarixiy xotirasini boyitishga ham xizmat qilmoqda.

Milliy gvardiya huzuridagi Qorabayir otlari mahorat maktabi bugungi kunda O'zbekistonda Qorabayir zotli otlarni saqlash, ko'paytirish va takomillashtirish, yosh chavandozlarni tayyorlash hamda milliy ot sportini rivojlantirish bo'yicha strategik ahamiyatga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan ta'lim va amaliyot markazi hisoblanadi.

Muassasa faoliyati seleksiya, naslchilik, veterinariya, sport tayyorgarligi va zamonaviy boshqaruv tizimlarini yagona kompleksda birlashtirishi bilan ajralib turadi. Davlat rahbari tomonidan olib borilayotgan islohotlar, mahalliy hokimliklar, oliy ta'lim muassasalari va sport tashkilotlari bilan hamkorlikning mustahkamlanishi Qorabayir zotining genetik salohiyatini saqlash, milliy ot sportini xalqaro maydonga olib chiqish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida ilmiy seleksiya markazlarini rivojlantirish, raqamli naslchilik bazalarini yaratish, veterinariya diagnostikasini yanada takomillashtirish, xalqaro federatsiyalar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda zamonaviy ot sporti infratuzilmasini rivojlantirish orqali Qorabayir otlari va milliy ot sportining xalqaro nufuzi yanada yuksalishi kutilmoqda.

Surxondaryo viloyati hokimi yangi qurilishi rejalashtirilgan otxona loyihasi bilan tanishdi.

